

**THE LOSS OF A LANGUAGE IS THE LOSS OF A NATION****Ruzmat Botirovich Ruzmetov**

Lecturer at the "Social Sciences" Department
 Urgench branch of Tashkent Medical Academy
rozmetov88@inbox.ru
 Urgench, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Language, official language, multipolar, state language, literacy, advertisement.

Received: 08.08.25

Accepted: 09.08.25

Published: 10.08.25

Abstract: Language is an argument for expressing identity, especially if it is the language of one's own nation. Its disappearance leads to the multipolarity of that nation. As a result, the number of ethnically majority units living in a given country increases. This article analyzes the results of a survey conducted within the framework of our scientific work and covers the implementation of the Law "On Advertising" in the Khorezm region.

TILNING YO'Q BO'LISHI-MILLATNING YO'Q BO'LISHIDIR**Ro'zmat Botirovich Ro'zmetov**

TTA Urganch filiali "Ijtimoiy fanlar" kafedrasi o'qituvchisi
rozmetov88@inbox.ru
 Urganch, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: til, rasmiy til, ko'p qutbli, Davlat tili, savodxonlik, reklama.

Annotatsiya: Til- o'zlikni namoyon qilishning bir argumenti, ayniqsa u o'zingning millat tili bo'lsa. Uning yo'q bo'lishi, o'sha millatning ko'p qutbli bo'lishiga olib keladi. Buning natijasida, ma'lum bir yurtda yashovchi, etnik jihatdan ko'pchilikni tashkil qiluvchi birliklarning salmog'i katta bo'ladi. Bu maqolada ilmiy ishimiz doirasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari tahlili hamda "Reklama to'g'risida"gi qonunlarining ijrosini Xorazm viloyati doirasida yoritilgan.

УТРАТА ЯЗЫКА — ЭТО УТРАТА НАЦИИ**Рузмат Ботирович Рузметов**

преподаватель кафедры "Общественные науки"

Ургенчского филиала Ташкентской медицинской академии
rozmetov88@inbox.ru
 Ургенч, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: язык, официальный язык, многополярность, государственный язык, грамотность, реклама.	Аннотация: Язык является аргументом для выражения идентичности, особенно если это язык собственной нации. Его исчезновение приводит к многополярности этой нации. В результате увеличивается количество этнически мажоритарных единиц, проживающих в данной стране. В данной статье анализируются результаты опроса, проведенного в рамках нашей научной работы, и освещается реализация Закона «О рекламе» в Хорезмской области.
---	--

Kirish


O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoev O'zbek tili bayramiga va o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining 35 yilligi bag'shlangan tadbirda "Ma'lumki, milliy til har bir madaniy xalqning tarixi va o'zligini, ruhiy-ma'naviy dunyosini o'zida aks ettiradigan tengsiz boylikdir. Qadimiy tariximizning eng og'ir va sinovli davrlarida ham bizni yagona xalq sifatida birlashtirib, azaliy qadriyatlarimizni asrlar osha bezavol saqlab kelayotgan ona tilimizni har qancha ardoqlasak, ulug'lasak arziydi" – degan davlat rahbari.

Til- o'zlikni namoyon qilishning bir argumenti, ayniqsa u o'zingning millat tili bo'lsa. Uning yo'q bo'lishi, o'sha millatning ko'p qutbli bo'lishiga olib keladi. Buning natijasida, ma'lum bir yurtida yashovchi, etnik jihatdan ko'pchilikni tashkil qiluvchi birliklarning salmog'i katta bo'ladi. Misol deylik: O'zbekistonda milliy tilimiz bu- o'zbek tilidir. Shunda gaplashuvchilarning asosiy qismi o'zbek tilida muloqot qilishi, ta'limda o'zbek tili ustuvor bo'lishi, jamiyatning har qanday shakli va ko'rinishida, rasmiy idoralarda xatlar, rasmiy hujjatlar, barcha- barchasi o'zbek tilida bo'lishi kerak bo'ladi. Va aksincha, qonunan rasmiy ikkinchi til deb olinmagan bo'lsa ham, rusiyazonlar ko'pchilik bo'lishi, muloqotida 50/50 rus-o'zbek tilida so'zlashishi, etnik jihatdan ma'lum bir qismni tashkil qilishi, migratsion ta'sirlar, o'sha tilning globallik ko'lamini ta'siri va boshqa holatlar natijasida milliy tilga bo'lgan hurmat, mehr, qadr, e'tirof, g'urur, iftixor tushunchalarining o'lishiga olib keladi. Jamiyatda rasmiy bo'lmagan tilning siyosiy ta'siri kuchayib ketadi. Rossiya TIV rasmiy vakili Mariya Zaxarovaning O'zbekistonda davlat tilida ish yuritish to'g'risidagi qonun loyihasi yuzasidan bildirgan fikrlari bunga misol bo'lishi mumkin. Unga ko'ra, 2020-yil 14-may kuni o'tkazilgan brifing vaqtida Rossiya TIV rasmiysi Mariya Zaxarova o'z chiqishida


O'zbekistondagi rasmiy idoralarda rus tilidan foydalanish saqlab qolinishi Rossiyada o'qish yoki ishlashni tanlaydigan fuqarolarning manfaatlariga to'la mos kelishini ta'kidlagandi. Til masalasida ushbu shaxsning aralashuvi na diplomatik, na etika va na axloq qoidalariga to'g'ri kelmasligini tushunishimiz mumkin. Hamda, qonun qabul qilishda har bir davlat suverenligi nuqtayi nazaridan o'zining ichki ishi hisoblanadi.

Ilmiy ishimiz doirasidagi sotsiologik so'rovnoma tayanib, milliy til to'g'risida ma'lum bir xulosalarga kelindi. Sotsiologik so'rovnoma jami bo'lib 335 ta respondent qatnashdi. Unga ko'ra quyidagi savollarni tahlilini ko'rishimiz mumkin:


“Davlat tili haqidagi tushunchaga egamisiz?” degan savolga respondentlarning 61,1 foizi “Ha, juda yaxshi ma'lumotga egaman”, 37,7 foizi “Ha, ozgina tasavvurga egaman”, 1.2 foizi esa “Yo'q, umuman ma'lumotga ega emasman” deya javob berishgan. Javoblardan ko'rinib turibdiki, deyarli ko'pchilik davlat tili haqidagi tushunchaga egadirlar.



“O'zbek tilini yaxshi bilaman deb hisoblaysizmi?” degan savolimizga respondentlarning 64,8 foizi “Ha, juda yaxshi bilaman”, 33,1 foizi “Qisman, boshqa til bilan aralashtirib gaplashaman”, 2,2 foizi esa “Yo'q, bilmayman” deb belgilashgan. Ko'rinib turibdiki, respondentlarning aksariyat qismi o'z tilini juda yaxshi bilishlarini aytishgan.




Siz muloqotingizda boshqa tillardan foydalanasizmi? degan savolimizga respondentlarning 50 foizi “Ha, qisman foydalanaman”, 40,7 foizi “Ha, foydalanaman”, 9,3 foizi “Yo’q, umuman foydalanmayman” degan javoblarni berishgan.




“Badiiy kitob o’qish til sofligini saqlashga yordam beradimi?” degan savolga respondentlarning 97 foizi “Ha” deb va 3 foizi “Yo’q” deb javob berishgan.




“Hozirgi o’zbek millatida milliy til savodxonlik darajasini qanday baholaysiz?” degan savolga respondentlarning 52,6 foizi “Ijobiy”, 28,8 foiz “Fikr bildirilmayman”, 18,6 foizi bo’lsa “salbiy” fikr bildirishgan.




“Ma’lum bir tilning savodxonligini nima belgilaydi?” Degan savolga respondentlarning 66,3 foizi “Kitobxonlik”, 46,2 foizi “To’g’ri va chiroyli yozuv”, 38,4 foizi “ko’chadagi saviya(ko’chadagi muloqot)”, 28,4 foizini Va’zxonlik“ va “Axborot texnologiyalari orqali yozuv” deb belgilashgan.




“Milliy tilimizda qaysi harflar bilan boshlanadigan so’zlarda yozishga qiynalasiz?” degan savolga respondentlarning 62,7 foizi “h va x”, 33,3 foizi “ts va s”, va 9,3 foizi “y va e” harflar bilan boshlanadigan so’zlarda yozishga qiynalishlarini belgilashgan. Bundan ko’rinib turibdiki, yakdil bir harf tizimga o’tmaganimiz sababidan shunday tushunarsiz va ishonchsizlik holatlarini ko’rishimiz mumkin.




“Til sofliğiga tahdid ko’proq qanday yo’llar orqali amalga oshirilmoqda?” degan savolga respondentlarning 74,2 foizi “Inretnet/ijtimoiy tarmoqlar”, 31,3 foizi “Ommaviy madaniyat”, 22,8 foizi “Migratsiya”, 21 foizi “Media va san’at” orqali kirib kelayotganligini e’tirof etishgan.



“Sizningcha tilning xavfsiz bo’lishini qanday omillar belgilaydi?” degan bir nechta savollar turkumiga 50,3 foizi “Til-millat g’ururi, ori, sha’ni sifatida faxrlanish orqali”, 44,3 foizi “Millatning tilsevarligi”, 42,5 foizi “gaplashuvchilar soni”, 31,9 foizi “Mamlakatning qudrati”, 24,4 foizi “Ommaviylashganlik darajasi” degan javoblarni berishgan.



“Til siyosiy qurol bo’lib biladimi?” degan savolga respondentlarning 85,2 foizi “Ha”, 14,8 foizi “Yo’q” deb belgilashgan.



“Ko’chalarda osilgan peshtaxtalardagi (reklama bannerlari) har xil tilda yozilgan yozuvlarga fikringiz?” degan savolga respondentlarning 45,6 foizi “Ijobiy”, 30,3 foizi “Salbiy” va 24 foizi “fikr bildirilmayman” degan javoblarni berishgan. Xulosa shuki, biz juda e’tiborsizmiz. Yana ham ko’pchilik tomonidan reklama bannerlaridagi yozuvlarga “ijobiy qarash” qilish vatanparvarlik tuyg’usining yuzakiroq holatini aks ettiradi. Kuzatuv va o’rganishlar shuni ko’rsatdiki, ko’pchilik reklama bannerlaridagi yozuvlar amaldagi til qoidalarini me’yorlarini buzilganlik holatlarini yaqqol ko’rishimiz mumkin.



O’zbekiston Respublikasining “Davlat tili to’g’risida”gi va “Reklama to’g’risida”gi qonunlarining ijrosini ta’minlashning ahvoli xususida 19-486 10.02.2024-yil Xorazm viloyati hokimligida o’tkazilgan 85-sonli yig’ilish bayonida “Davlat tili to’g’risida”gi va “Reklama to’g’risida”gi qonunlari talablari ijrosini amalga oshirilishi yuzasidan viloyat bo’ylab o’tkazilgan tekshiruvlar natijasi haqida to’xtalib o’tildi. Bu qonunlarga rioya etilmayotganligi va bu xususida yuzaga kelayotgan muammolar to’g’risida to’xtalib, tadbirkorlik subyektlari va yakka tadbirkorlar ro’yxatdan o’tayotganda viloyat adliya boshqarmasiga tegishli davlat xizmatlari markazi huzuridagi shaxsiy kabinet orqali fuqarolar uyida o’tirgan holatda tadbirkorlik subyektlari va yakka tadbirkorlar o’zlariga nom tanlab, ro’yxatdan o’tayotganligi, shaxsiy kabinet esa taklif qilingan nomlarning qaysi tilda bo’lishidan qat’iy nazar, takror bo’lmasa, inson omilisiz ruxsat berayotganligi, yakka tadbirkorlar davlat ro’yxatidan boshqa nom bilan o’tib, o’zlari esa, O’zbekiston Respublikasining “Davlat tili to’g’risida”gi va “Reklama to’g’risida”gi qonunlari talablariga javob bermaydigan istalgan so’zlar-terminlar bilan atashyotganligi va mazkur nomlari milliy qadriyatlar, urf-odatlar, mentalitetga xos so’zlar bilan jaranglashini istamayotgani, ma’naviyat va vatanparvarlik tuyg’ulariga nisbatan bepisandligi aniqlangan. Natijada:


Urganch shahrining Pahlavon Mahmud ko’chasida “TEXAS BURGER”, “ЖАЛЮЗИ”, “NICE xot-dog”, “MAX FOOD”, “КСЕРАКОПИЯ”, “FARINA SHOP”, “РУССКИЙ ЛЕС”, “ЦЕНТР ДВЕРЕЙ”, “ПО НИЗКИМ ЦЕНАМ”, “MONZA BOUTIQUE”, “МУЖСКАЯ

ОДЕЖДА”, “ЖЕНСКАЯ ОДЕЖДА”, “МУЖСКИЕ ОДЕЖДЫ”, “TEDDI”, “ON COLD”, “BOUTIQUE”, “LEDI SHOP”, “KIDS CITY”, “DALEL’S”, “BELLEZA”, “PARFUM CITY”, “KIBELE HOME”, “ALLIGATTOR”, “JE DONNE”, “KINGSMEN”, “GABBIACCI”, “RICH”, “FLOWER”, “BINAYYA”, “DAFNA”, “STORE”, “MAGC GIFF”, “HILOOK HIK VISION”, “TEHNOTECH”, “HOUSE PHONE”, “PANDA MOBILE”, “TEMOUS”, “CITY CAM”, “UMNIY DOM”, “DOMOFON”, “VIDEO NABLYUDENIYA”, “UZMEN”, “LIVALI”, “VAHL PROFESSIONAL”, “LAVASH CENTER”, “XIMCHISTKA”, “ELETE HOUZE”, “TREND”, “I LAVE”, “SERVASE CENTER TESLA”, “POLSPENT CLASSIC”, “ОПТОМ НИЖНЕЕ БЕЛЬЯ”, “БЕЛЯЩИ ПОНЧИКИ”, “АПТЕКА”, “СКИДКА” kabi 55 ta nomlar O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili to‘g‘risida”gi va “Reklama to‘g‘risida”gi qonunlari talablariga umuman javob bermasligi;

Urganch shahrining Xonqa ko‘chasining bir qismi va Sanoatchilar ko‘chasida “САМ МОЙ”, “ЦЕНТР КРАСОТЫ”, “УРГАНЧ МЧЖга қарашли Урганч 2-СОҢЛИ АЁҚШ”, “ПРОПАН БЕНЗИН”, “АРЗОН НАРХДА ТАХТА ВА ЁҒОЧ ЛИС”, “МАТРАС”, “ОПТОМ”, “МЕБЕЛЬНАЯ ФАРНИТУРА”, “ДВЕРИ”, “ВОРОТА”, “РОССИЙСКИЕ ДВЕРИ И ЛАМИНАТ”, “ВСЁ ДЛЯ СНА”, “АВТОЗАПЧАСТ”, “ИСКУССТВА УКЛАДКИ ПЛИТКИ И КАМНЯ”, “РОССИЯ ЭШИКЛАРИ”, “МОЙ САМ”, “РУССКИЙ ЛЕС”, “БРУСЧАТКА”, “LANA”, “SHOWROOM”, “АЧАМ”, “EURDRECAS”, “LITOKOL”, “STORY CENTER”, “EXSCLUZIVE”, “SERVISE DIOGNOSTIKA”, “FILTRON” kabi 27 nomlar; Urganch shahrining al-Xorazmiy shoh ko‘chasida “JE TA’IME”, “BUSINESS CENTER”, “LASER CENTER”, “ELISA”, “ARXITEKTURAL KOMPANI LUX”, “SITORA BAQS”, “DI STORE”, “MERRI MI”, “BEAUTI SALON”, “WEDDING HOME”, “LA YANDA”, “SALON KROSATI”, “PREMIUM”, “LASINA”, “LE BELLA”, “WEDDING DRES HOUSE”, “SPOSA MI”, “PREMIUM”, “MILLENNIUM”, “KIP”, “SAFFRAN”, “IMPERIY”, “BEAUTY LASER”, “IROW BEAUTY SENTER”, “FLOWERS BOUTIQUE GLAMOU”, “LA STORIA”, “STEYK”, “XOMOS”, “LE DI”, “GARAJ BURGER”, “SHANEL”, “MILANO”, “OBOY HOUSE”, “MEDIKALLIFE”, “ODERMARK”, “ALBERO MEBEL”, “LAVITA MEBEL”, “SARPO HOUSE”, “EASTLINE EKSPRESS”, “VERONA”, “ОБОИ В ШИРОКОМ АСОРТИМЕНТЕ”, “МИР ОБОЕВ”

O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili to'g'risida"gi va "Reklama to'g'risida"gi qonunlari talablariga umuman javob bermasligi ta'kidlandi. "Milliy tilimiz sofliğini saqlashimiz uchun O'zbek tili fanini o'qitish ko'lamini oshirish, dasturiy mahsulotlarning o'zbekcha ilovalari va elektron lig'atdasturlarini yaratish, milliy til sofliğini saqlash bo'yicha vakolatli va ijro etuvchi kuchli Davlat nazorat organini tashkil qilish fikriga qo'shilasizmi?" degan savolnomaga respondentlarning 70,9 foizi "Ha", 24,5 foizi "Qisman" va 4,6 foizi "Yo'q" deb javob berishgan.

Xalqimiz suveren davlat sifatida mustaqil yuksalish yo'lidan 1989-yilda o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgandan so'ng boshlangani ijtimoiy-tarixiy haqiqatdir. Bu bizning mustaqil taraqqiyot yo'lidagi sayohatimizning boshlanishi edi. "Har birimiz davlat tiliga bo'lgan e'tiborni mustaqillikka bo'lgan e'tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni, ona Vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz kerak". Shulardan kelib chiqib, o'zbek tilining funksional rivojlanishini o'sishi va kengayishini ta'minlaydigan samarali usullarni izlab topish, hozirda istiqomat qilayotgan boshqa xalqlarning tili va milliy madaniyati rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatmasdan turib, o'zbek tilining funksional imkoniyatlarini



kengaytirishga imkon beradigan samarali usullarni kashf etish zarur. Bu maqsadni amalga oshirishda o'zbek tilining davlat tili sifatidagi funksional rivojlanishining ijtimoiy-falsafiy jihatlarini o'rganish predmetiga aylantirish zarur.

Milliy tilning yaxlitligini ta'minlash falsafiy nuqtai nazarga ko'ra, nafaqat tilshunoslik, balki ma'naviy-madaniy majburiyat hamdir. Bu jarayonni mamlakat va hukumat, keng jamoatchilik, ilmiy doiralar qo'llab-quvvatlashi, har bir inson o'z tili va madaniyatining ahamiyatini anglashi muhim. Shu bilan birga, tilning hayotiyliigi va jozibadorligini ta'minlash uchun tilning o'sish sur'atlarini zamonaviy jamiyat ehtiyojlari bilan uyg'unlashtirish, milliy til asosida ishlab chiqilgan yangi so'z va tushunchalarni yaratish zarur.

Globallashuv jarayonida xalqaro aloqalarning kuchayishi mahalliy madaniyatlar bilan raqobatni yuzaga keltirar ekan, global madaniyat va mahalliy madaniyat o'rtasida muvozanatni saqlash muhim ahamiyatga ega. Shunday ekan, global jarayonlarga moslashish jarayonida erishiladigan mahalliy o'ziga xoslikni yo'qotmaslik uchun milliy tilning yaxlitligini saqlab qolish zarur.

Milliy o'zlikni asrash maqsadida milliy til xalqning o'ziga xos madaniyati va qadriyatlarini avloddan-avlodga yetkazuvchi asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Globallashuv ta'sirida milliy tilga boshqa tillardan so'zlarning kirib kelishi, tilning buzilishiga yoki xalq tutgan qadriyatlarning o'zgarishiga olib kelishi mumkin;

Madaniy merosni muhofaza qilish muhim ahamiyatga ega, chunki har bir tilning o'ziga xos lug'at boyligi, grammatikasi, frazeologiyasi mavjud bo'lib, bu elementlar unda so'zlashuvchi xalqning ma'naviy va madaniy boyliklarini aks ettiradi. Agar tilning asrab-avaylanishiga e'tibor berilmasa, bu meros yo'qolishi mumkin;

Globallashuv sharoitida xalqaro munozarada qatnashish uchun boshqa tillarni bilish muhim bo'lsa-da, milliy tilni o'stirish, uni fan-texnika taraqqiyoti rivojiga mos ravishda o'zgartirish ham birdek zarur. Ushbu tartibni qo'llash orqali milliy tilning imkoniyatlari kengayib, ilmiy tilga aylantiriladi;

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 07.06.2022 yildagi O'RQ-776-son
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Sovetining Vedomostlari, 1989-yil, № 26-28, 453-modda
4. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 21.12.1995 yildagi 167-I-son
5. Мирзиёев Ш.М. Ўзбек тили халқимиз учун миллий ўзлигимиз ва мустақил давлатчилик тимсоли, бебаҳо маънавий бойлик, буюк қадриятдир // Халқ сўзи газетаси. — 2019 йил 22 октябрь, 218-сон.